



KRIMINALISTIKA TEXNIKASI YORDAMIDA VOQEA JOYINI KO'ZDAN KECHIRISH VA TEZKOR-QIDIRUV ISHIDA QO'LLANILISHI

Xursanov Furqat Alisher o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti "Yurisprudensiya" (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Mamanorov X.X

Ilmiy rahbar : Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti "Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Kriminalistik texnika yordamida voqea joyini ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari, kriminalistik texnikaning tezkor-qidiruv faoliyatida tutgan o'rni, ushbu kriminalistik jarayonni yanada kuchaytirish bo'yicha takliflar.

Kalit so'zlar: Kriminalistik texnika, Ko'zdan kechirish, tergovchi. Ko'zdan kechirish turlari, kriminalistik prinsiplar, ko'zdan kechirish bosqichlari, tergov chemodani, statik, dinamik, ekspert-kriminalistika faoliyati.

Kriminalistik texnika hozirgi kunda jinoyatlarni ochish va uni tergov qilish orqali aybdorlarni jazolashda juda katta o'rinni tutadi. Bunda kriminalistika fani muhim o'rinni egallaydi. Chunki jinoyat huquqi jinoyat va jazo tizimini belgilab bersa, kriminalistika esa bu jinoyatlarni qanday qilib aniqlash va ochish metodikasini o'rgatish orqali jinoyat va jinoyat-protsessual fanlariga juda katta yordam beradi. Asosan ko'pchilik jinoyatlarda ko'zdan kechirish taktikasini qo'llash orqali ko'p jinoyatlar ochiladi va tergov qilish taktikasi orqali amalga oshiriladi. Unda jinoyat izlari, ashyoviy dalillar bevosita aniqlanadi va ularning sharoit va holatlari o'rganiladi. Bu jinoyatlarni ochish va aniqlash albatta surishtiruvchi va tergovchining mahoratiga bog'liq. Birinchi navbatda tekshirilayotga voqea qanday sharoitda yuz bergenini aniqlash jinoyatni ochishda juda o'rinni tutadi, keyingi navbatda esa jinoyat izlarini aniqlash jinoyatni ochishga muhim dalil bo'lib asqotadi. Izlar va narsalar aniqlangani



bilan uni qaysi jinoyatchiga aloqadorligini aniqlash bo'lmasa jinoyatni oxiriga yetkazishga olib kelmasligi mumkin. Shuning uchun jinoyat subyekti sifatida jinoyatchini aniqlash jinoyatni tergov qilishda muhim hodisa hisoblanadi. Ko'zdan kechirish tergov harakatini olib borish nafaqat kriminalistika fani balki, balki jinoyat-protsessual fani bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ushbu tergov harakatini olib borishda kriminalistik bilim va ko'nikmalardan tashqari jinoyat va jinoyat-protsessual fanlarini ham chuqur bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'zdan kechirishning hodisa joyi, tevarak-atrof, tirik shaxslarni, pochta-telegraf xabarlarini, murdani, narsa va hujjatlarni, hayvonlarni va audioyozuvlarni ko'zdan kechirish kabi turlari mavjud.¹ Ko'zdan kechirish dastlabki tarzda amalga oshirilsa, hamma muhim bo'lgan dalillar va izlar yaxshi aniqlanadi va jinoyat ishi uchun muhim dalil bo'lib asqotadi, ammo dastlabki tekshiruv chala va kamchiliklar bilan o'tkazilib, xatolar ko'p bo'lsa bu tergov jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bunday holatda tergovchi takroriy tarzda ko'zdan kechirish tergov harakatini amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Takroran o'tkazishning afzallik tomonlaridan yana biri tekshirilayotgan obyekt sinchkovlik bilan amalga oshiriladi, bu jinoyat ishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkiin. Ko'zdan kechirish tergov harakati sermashaqqat tergov harakatlaridan biri hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda ko'zdan kechirish orqali hodisa sodir bo'lgan joy va jinoyat joyi bir-biriga to'g'ri kelmasligi mumkin. Hodisa sodir etilgan joy bitta jinoyat ishi bo'yicha bitta joyni tekshirishdan iborat bo'lmasligi mumkin. Jinoyat murakkab jinoyat bo'lib, uning sodir etilish joyi turli xil joylarda bo'lishi mumkin Ana shunday holatlarni hisobga olib tergovchi turli xil joylarni ko'zdan kechirishiga to'g'ri keladi. Masalan odam o'ldirish jinoyat bo'yicha odam o'ldirilgan joy, murdani boshqa yerga olib borib ko'mib yuborilgan joy va hokazo holatlar bo'lishi mumkin. Ko'zdan kechirishning prinsiplari ushbu tergov harakatlarini olib borishda ularni aniq, bir xilda ,o'z vaqtida olib borishda katta o'rinn tutadi. Ko'zdan kechirishni o'z vaqtida amalga oshirish juda katta ahamiyat kasb etadi, Agar bu tergov harakati kechiktirilib, amalga oshirilsa o'sha yerdagi izlar va boshqa dalillar yo'q bo'lib ketishi yoki o'z xususiyatini yo'qotishi mumkin.

¹ Prezidentning "Ichki ishlar organlarining Ekspert kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish orqali yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" qarori



Ko'zdan kechirishni to'liq amalga oshirish ham muhim prinsiplardan biri hisoblanadi. Bu prinsipni to'g'ri qo'llamaslik ishni to'g'ri amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Tergovchi ko'zdan kechirishni amalga oshirishda albatta reja tuzib olishi shart, chunki tartib bilan amalga oshirilmasa ba'zi holatlarni unutib qo'yib sedan chiqarib qolib ketishi mumkin va ishning chala va xataliklar bilan bajarilishiga olib kelishi mumkin. Bunday olganda tergovchi puxta tayyorgarlik ko'rishi kerakligida dalolat beradi. Ko'zdan kechirishni axborot-texnik va moddiy-texnik ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tergovchi tergov harakatini olib borishda bir o'zi amalga oshirishi u to'liq jinoyatni ochishiga yetarli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun tergovchi ekspert va mutaxassislar bilan ham ishlashiga to'g'ri keladi. Yana xizmat itlari va kinologlar va tezkor xodimlar bilan ham ishlaydi. Tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan oldin va keying harakatlarni albatta o'ylab oladi va ularni ketma-ket bir tekis bajarishi shart. Birinchi marta ma'lumotlar olishi, qo'riqlash choralarini ko'rishi, unda ishtirok etadigan shaxslarni aniqlab, kriminalistik vositalarni tayyorlab keyin ishga kirishishi shart. Hodisa joyiga borganda esa jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishi shart, jinoyatchi agar shu joyning o'zida bo'lsa shu joyning o'zida ushslash chorasini ko'rishi kerak. Tergovchi tergov harakati jarayonida jamoat vakillarini ham jalg qilishi kerak, bu ishni bajarishda juda katta foydasi bo'lishi mumkin. Tergovchi begona shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart, chunki ular ishni to'g'ri bajarishga halaqt berishi mumkin². Ishtirokchilarga ularning vazifasini belgilab berishi kerak. Vazifani taqsimlash ishni bajarishga foyda berishi mumkin. Tergov chemodani ham ishni to'g'ri va aniq bajarish uchun asqotadi. Unda izlar, transport quollaridan qoladigan izlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chemodanda turli xil asbob va uskunalar saqlanadi. Sur'atga olish uchun kerakli fotoapparatlar ham bo'ladi va u dalillarni qayd qilib qo'yish uchun kerakli vosita hisoblanadi. Tergovchi turli xil usullar yordamida hodisa joyini chet tarafdan, markazdan va yana chet tarafdan aylanib tekshirish ishlarini olib boradi. Ko'zdan kechirish static va dinamik tarzda amalga oshiriladi. Statik tarzda buyumlar asl holida ko'zdan kechiriladi, ya'nu ular joyidan ko'chirilmaydi. Dinamik ko'zdan kechirishda

² Econferenceseries.com



obyektlar bir joydan boshqa joyga ko'chirilib tekshirish ishlari olib boriladi, ya'ni undan oldingi holat va bundan keyingi holatlar tekshirilib ular o'rtaсидаги тафовут ва о'xshashliklar aniqlanadi. Ba'zi holatlarda obyektlardan nusxa va izlar olish qiyinlashib qolishi mumkin, bunday vaziyatda perxlorvinil yelimi mavjud va u tergov jarayoniga yordam berishi mumkin. Qotillik jinoyati bo'yicha uni sodir etishda ishlatilgan quroq va vositalar topilsa yaxshi, lekin bironta iz bo'lmasa, bu birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin jinoyat ishini olib borishga. Agar tergovchi jinoyat turli xil vositalar bilan sodir etilganiga ishonchi komil bo'lsa va unga taxmin qilsa o'sha yerdan ushbu vositalarni qidirish choralarini ko'rishi shart. Tergov jarayoni faktini asoslash va qayd qilish uchun tergovchi albatta bayonnomma tuzish orqali rasmiylashtirishi kerak. Kriminalistik texnika tezkor-qidiruv faoliyatida ham qo'llanilishi unga katta yordam beradi. Chunki jinoyat ishi ochilmasdan turib, birinchi tezkor-qidiruv xodimlari ushbu vaziyatga tushadilar va hodisa joyini ko'zdan kechirish orqali unga aniqlik kiritadilar. Tezkor-qidiruv xodimlari aniqlagan dalillar va izlar dastlabki dalil bo'lib xizmat qiladi. Kriminalistik texnika bo'yicha hodisa joyini ko'zdan kechirish bo'yicha tergov jarayonini yanada kuchaytirish va yuksaltirish uchun albatta zamonaviy fan va texnikani olib kirish lozim. Chunki kriminalistika fan va innovatsiyalar bilan hamnafas yuradigan fan hisoblanadi. Ya'ni ko'zdan kechirish jarayonida texnikalar, ayniqsa raqamlı texnologiyalar juda muhim o'rinn tutadi jinoyat ishini to'la ochish va aniqlashda. Inson aql-idroki ba'zi paytlarda pand berishi mumkin. Texnologiya orqali ancha oson va tez amalga oshirsa bo'ladi. Keyingi o'rinda kriminalistik ilmiy usul va vositalarni yanada takomillashtirish orqali bu jarayonlarni ancha kuchaytirish mumkin. Shaxslar to'g'risida olingan axborotlarni albatta avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimini joriy etish eng yuksak vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki avtomatdan foydalanish insonga qaraganda ancha tez va qulay. Bu bo'yicha ichki ishlar organlari dalillarning isbotlov bazasini kuchaytirish lozim. Bu masalalarni ishlab chiqish bo'yicha muhim qonun hujjatlari ishlab chiqish lozim, u bo'yicha yo'l xaritasi va konsepsiylar ishlab chiqish kerak. Yana bir muhim chorallardan biri sud-tergov jarayoniga ekspertizaning zamonaviy turlarini kiritish



lozim. Zamonaviy ekspertiza turlarini ishlab chiqish uchun boshqa davlatlarning huquq sohalaridan foydalanish lozim.³

Masalan, maxsus transport vositalarini baholash ekspertizasi juda katta o'rinni tutadi. Ekspert-kriminalistika bo'linmalari shaxslarga ekspertlik va ilmiy-tadqiqot yo'nalishi bo'yicha pullik xizmatlarni ko'rsatish chora-tadbirlarini belgilash ham bu sohani kuchaytiradi. Eng muhim choralardan biri kriminalistika texnikasida malakali xodimlar bilan ta'minlash orqali ularning faoliyatini ancha yuksaltirish va rivojlantirish mumkin. Ushbu xodimlarga har oylik ish haqiga ustama to'lash orqali ularni rag'batlantirish mumkin. Chunki kriminalistika faoliyati mashaqqatli va qiyin kasblardan biri hisoblanadi. Kriminalistlar faoliyatini zamonaviy texnika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ham ta'minlash juda katta ahamiyat kasb etadi. Kriminalistlarning ish o'rinnari va mehnat sharoitini munatazam ravishda attestatsiyadan o'tkazib turish ularning tartibliligi va xavfsizligini ta'minlashning bir yo'nalishi hisoblanadi. Xodimlar faoliyatini baholab borish va ularni maqtab borish ularning faoliyatini oz bo'lsada kuchaytiradi. Kriminalistik jihozlar va vositalar bilan ta'minlangan yaxshi sharoitlarga ega bo'lgan laboratoriylar tashkil etish lozim. Laboratoriyaning afzalligi kriminalistik jarayonni to'liq amalga oshirishni va toza bajarishni kuchaytiradi. Kriminalistik faoliyatda daktiloskopik ekspertiza turini joriy etish va buni yo'lga qo'yish orqali kriminalistik texnikani rivojlantirishga yordam beradi. Kriminalistika sohasi bo'yicha yangi fanlarni ishlab chiqish ham kriminalistik tadqiqot jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Yuqorida keltirib o'tilgan barcha chora-tadbirlar Kriminalistika fani sohasida kriminalistika texnikasini yanada rivojlantirish va taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda jinoyatlarni ochish, tadqiq etish, tergov qilish jarayonida juda katta yordam berishiga ishonaman. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda bu sohani tadqiq etish lozim. Bu qilinayotgan chora-tadbirlar esa kriminalistik faoliyatni yanada yuksaltiradi

³ Prezidentning "Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi" qarori



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Kriminalistika darslik 2018
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining Ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " qarori
- 3.econferenceseries.com
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori